

"XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING ISHLAB CHIQARISH JARAYONI TAHLILI VA AUDITI"

Tog'ayeva Kamola Shuxratovna

*Qarshi Davlat Texnika Universiteti, Iqtisodiyot va Boshqaruvi
Fakulteti talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish va audit qilishning nazariy asoslari, ularning amaliyotdagi ahamiyati, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari, ularni tahlil qilish usullari, audit jarayonidagi xatoliklarni aniqlash va ularning oldini olish choralari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *ishlab chiqarish jarayoni, xo'jalik yurituvchi subyekt, iqtisodiy tahlil, audit, samaradorlik, nazorat, tannarx, mehnat unumtdorligi*

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические основы анализа и аудита производственного процесса хозяйствующих субъектов, их практическое значение и роль в повышении эффективности производства. Также исследуются экономические показатели производства, методы их анализа, выявление ошибок в процессе аудита и меры по их предотвращению.

Ключевые слова: *Производственный процесс, хозяйствующий субъект, экономический анализ, аудит, эффективность, контроль, себестоимость, производительность труда*

Annotation: *This article examines the theoretical foundations of the analysis and audit of the production process of economic entities, their practical significance, and their role in increasing production efficiency. It also explores production economic indicators, methods of their analysis, error identification in the audit process, and measures to prevent them.*

Key words: *production process, economic entity, economic analysis, audit, efficiency, control, cost price, labor productivity*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning muvaffaqiyati ularning ishlab chiqarish jarayonlarini qanchalik samarali tashkil etishi va nazorat qilishiga bog'liq. Ishlab chiqarish – bu mehnat, texnika, texnologiya va boshqaruvi resurslarining uzviy bog'liqlikda uyg'unlashgan tizimidir. Bu tizimning har bir bo'g'ini to'g'ri baholanmasdan turib, umumiyligi iqtisodiy samaradorlikni oshirish mumkin emas. Xo'jalik yurituvchi subyektlar auditi – bu xo'jalik yurituvchi tashkilotlar (masalan: korxona, firma, kompaniya va boshqalar)ning moliyaviy, iqtisodiy va ishlab chiqarish faoliyatini mustaqil va xolisona

tekshirish jarayonidir. Bu audit korxonaning moliyaviy hisobotlarining ishonchligini, faoliyatining qonuniyligini, iqtisodiy samaradorligini va ichki nazorat tizimining to‘g‘ri tashkil etilganligini baholashni o‘z ichiga oladi. Auditning asosiy maqsadi – xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yuritilayotgan moliyaviy va buxgalteriya hisobotlarini mustaqil tekshirish orqali: Ularning to‘g‘riligini aniqlash; Qonunlarga rioya qilinishini baholash; Ichki nazorat tizimining holatini tekshirish; Boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ishonchli axborot taqdim etishdir.

Tahlil va audit – xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganish, ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelayotgan kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatish va qarorlar qabul qilishda muhim vositalar hisoblanadi. Xususan, ishlab chiqarish tahlili bu jarayonni iqtisodiy nuqtai nazardan baholash, uni raqamli ko‘rsatkichlar bilan ifodalashdir. Audit esa bu jarayonning shaffofligi va qonuniyligini tekshiradi. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun ishlab chiqarish jarayoni – bu foyda olish, iqtisodiy o‘sish va bozor raqobatida barqaror o‘rin egallash uchun asosiy omil hisoblanadi. Ishlab chiqarishning har bir bosqichi rejalashtirilgan, samarali va sifatli tashkil etilgan bo‘lishi zarur. Bu nafaqat moliyaviy foyda, balki iste’molchilarni qoniqtirish va iqtisodiyot taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar turli xil sohalarda masalan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, savdo va xizmat ko‘rsatish, transpirt va aloqa, axborot texnologiyalari, turizm, moliyaviy xizmatlar kabilarda faoliyat yuritadi. Hamda ularni tartibga solishda ham bir qator huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan.

O‘zbekistonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar mamlakat iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tartibga solish va samaradorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar rivojlanmoqda.

Ushbu maqolani yozishda quyidagi usullar va manbalardan foydalanildi:

I. Nazariy metodlar: iqtisodiy va auditga oid o‘zbek va xorijiy adabiyotlar o‘rganildi (Q.V. Akbarov, A.B. Xolmuminov, A.I. Umarov, G.G. Toxirova, hamda Halil, Arens, Loebbek va boshqalar).

II. Tahliliy metodlar: ishlab chiqarish jarayonining asosiy ko‘rsatkichlari – mehnat unumdonligi, mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilindi.

III. Empirik metod: korxonalarda o‘tkazilgan audit amaliyoti asosida tahliliy xulosalar chiqarildi.

IV. Komparativ metod: turli sohalardagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati solishtirildi.

Ishlab chiqarish jarayonining iqtisodiy mohiyati.

Ishlab chiqarish – bu resurslarni tovar va xizmatlarga aylantirish jarayonidir. U quyidagi bosqichlardan iborat: rejalashtirish, resurslar bilan ta'minlash, ishlab chiqarish, nazorat va baholash. Samarali ishlab chiqarish yuqori mehnat unumdorligi, arzon mahsulot tannarxi va yuqori foyda bilan xarakterlanadi.

Tahlilning asosiy yo'nalishlari quyidagilaridan iboratdir:

1. Mehnat unumdorligini tahlil qilish: Bu ko'rsatkich mahsulot hajmi va ishchilar soni asosida aniqlanadi. Mehnat unumdorligini oshirish – raqobatbardoshlikni ta'minlovchi asosiy omil.
2. Mahsulot tannarxining tahlili: Tannarxni tahlil qilish orqali ortiqcha xarajatlar aniqlanadi. Bu esa tejash va foyda ko'lами kengaytirishga yordam beradi.
3. Fondlar va quvvatdan foydalanish: Asosiy fondlarning ishdagi samaradorligi ishlab chiqarishning sifatini belgilaydi.

Audit – xo'jalik faoliyatini mustaqil va tizimli tekshiruvdir. U quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: Ishlab chiqarish xarajatlarini qonuniyligi; Hisobotlarning ishonchliligi; Resurslardan oqilona foydalanish; Ichki nazorat tiziminining samaradorligi.

Tahlil va audit bir-birini to'ldiruvchi vositalardir. Audit xatolarni aniqlaydi, tahlil esa ularning sabablarini tahlil qiladi. Masalan, ishlab chiqarish tannarxi ortgan bo'lsa, tahlil bu ortishning sabablari – xomashyo narxi, energiya sarfi, ishchi kuchi xarajatlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Audit esa bu xarajatlarning hujjatlashtirilganligini tekshiradi.

Amaliy misollarda ham buni ko'rish mumkin: "X" aksiyadorlik jamiyatida 2023-yil davomida ishlab chiqarish tannarxi ortib, foyda kamaygan. Tahlil natijasida aniqlanishicha, energiya sarfi ortgan. Auditda esa energiya yetkazib beruvchi bilan shartnoma noto'g'ri tuzilgani aniqlangan. Bu kabi masalalarda tahliliy yondashish muhim hisoblanadi va quyidagi tahlillardan foydalanish mumkin:

- b) Tahlil mexanizmini avtomatlashtirish – bu inson xatolarini kamaytiradi.
- c) Auditda riskga asoslangan yondashuvni qo'llash – bu resurslarni tejaladi.
- d) Hisobotlarda raqamli texnologiyalardan foydalanish – bu ishonchlilikni oshiradi.
- e) Har yili ichki audit xizmatlarini qayta tayyorlash – bu sifatlilikni ta'minlaydi.

Xulosa

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish va audit qilish – ularning rivojlanish strategiyasida ajralmas vositadir. Bu ikki yo'nalish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki boshqaruv qarorlarini oqilona qabul qilish, xatolarni vaqtida aniqlash va ularning oldini olish imkonini beradi. Bugungi raqobatbardosh

muhitda ishlab chiqarish tahlili va audit strategik ustunlikni ta'minlovchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References):

1. Akbarov Q.V., Xolmuminov A.B., Iqtisodiy tahlil, T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021.
2. Umarov A.I., Moliyaviy audit asoslari, T.: “Fan”, 2020.
3. Toxirova G.G., Korxona iqtisodiyoti, T.: “IQTISODCHI”, 2022.
4. Arens A.A., Loebbecke J.K. “Auditing: An Integrated Approach”, Pearson, 2017.
5. Halil A., “Production Economics”, Springer, 2019.
6. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi hujjatlari, 2023.
7. OECD Guidelines on Performance and Audit in Production Enterprises, 2020.

